

YOSHLAR IJTIMOIY-IQTISODIY VA IJTIMOIY-INNOVATSION FAOULLIGINI OSHIRISH – MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH OMILI

Otamuratov Sarvar Sadullaevich

*Sotsiologiya fanlari doktori, Toshkent Moliya instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi
dotsenti. Elektron pochta: s.otamuratov1973@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada yoshlardan ijtimoiy-iqtisodiy faoulligini oshirish – mafkuraviy immunitetni mustahkamlash omili haqida so'z boradi. Muallif yoshlarni nafaqat jamiyat va mamlakat hayotida oila a'zosi balki xalq vakili, mamlakat fuqarosi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi, o'ziga xos maqomiga ega bo'lgn mustaqil guruh – sub'ekt sifatida o'rzanadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, yoshlardan, g'oya, mafkura, immunitet, innovatsiya, faollik, ehtiyoj.

KIRISH

Jamiyat murakkab tirik organizm bo'lib uning barqaror rivojlanishi inson omili bilan bog'liqdir. Unda insonlar yoshi, kasbi, jinsi jamiyatda kechayotgan jarayonlarga munosabati, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdagi intilishlarni hamda boshqa qator jihatlari bilan farqlanadilar.

Ayni paytda, ularning bunday munosabatlari o'z o'zidan stixiyali tarzda shakllanmaydi, balki, bir tomondan, ularni insonning hayot kechirishi uchun zarurbulgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlar harakatga keltirsa, ikkinchi tomondan, davlat, jamiyat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan olib boriladigan ta'lim hamda tarbiya vositalar faollashtiriladi. Ular ta'sirida inson ongi, dunyoqarashishakllanadi va doimo takomillashib boradi.

Shu ikki omil qanchalik yuksak darajada rivojlangan bo'lsa, insonlarning faolligi ham, ularga mos taraqqiy topib boraveradi. Shu bois, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni jamiyat va davlat manfaatlariga mos ravishda izchillik bilan rivojlantirishni taqoza qiladi. Bu o'ta muhim faoliyat mamlakat yoshlari qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlardan jamiyat va mamlakat xayotida oila a'zosi, muayyan millat, xalq vakili, mamlakat fuqarosi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish faoliyati, u yoki bu g'oya va mafkuraga munosabati bilan uziga xos maqomga ega bo'lgan mustaqil guruh sifatida barcha jarayonlarda, ularning jamiyat xayotida moddiy va ma'naviy

boyliklarni yaratishda, turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda institutlar faoliyatida ongli ravishda ishtirok qilishini tushunish mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini ta'minlash, jamiyat va mamlakat buguni va istiqboli uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki ulardag'i o'ziga xos jo'shqinlik, yangilikka intiluvchanlik moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ularning jamiyat va mamlakat hayotidagi o'rni haqida fikr yuritilganida quyidagilar nazarda tutiladi: 1) ular oila a'zosi va mamlakat fuqarolari sifatida ajdodlarni avlodlar bilan bog'lab turadi hamda bardavomligini ta'minlashdi; 2) millat vakili sifatida o'ni asrash, manfaatlarini ifodalash va himoya kilishining davomchilari sifatida namoyon bo'ladi; 3) mamlakatning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda asosiy kuch sifatida ishtirok qiladi; 4) milliy ma'naviyatni rivojlantirish va uni turli yot ta'sirlardan himoyalash va xavfsizligini ta'minlashda qatnashadi; 5) ajdodlardan qolgan moddiy va ma'naviy meroslarni asrash va o'zlaridan keyinga avlodlarga yetqazadi; 6) ular mamlakat xarbiy qudratining asosiy tayanchi hisoblanishini inobatga oladigan bo'lsak, ular mamlakat xavfsizligi va chegaralar mustahkamligini o'z zimmasiga oluvchi kuch hisoblanadi; 7) jamiyatda mavjud bo'lgan turli sinflar, ijtimoiy guruhlar va institutlarning barqarorligini, ular o'rtasida hamkorlik, hamjamiyatlik hamda mamlakat taraqqiyoti yo'lida yakdillik bilan faoliyat olib borishda yetakchilik qiladi; 8) ular mamlakatning mehnat resurslari sifatida, uning bardavomiyligini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilganlarga e'tibor beradigan bo'lsak, yoshlar mamlakatning buguni va istiqbolni ta'minlovchi asosiy kuch ekanligi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Endi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish bilan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash o'rtasida qanday bog'liqlik borligi haqida fikr yuritishga xarakat qilib ko'raylik. Sodda qilib aytganda ijtimoiy soha: oila, farzand, ta'lim tarbiya, sog'liqni saqlash, turli ijtimoiy guruhlar barqarorligi va iqtisodiy soxani rivojlanishini, moddiy farovonlikni ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi. Yoshlar uchun yaratiladigan shu omillar, nafaqat ularning xayot kechirishi uchun muhim sharti, balki davlat va jamiyatga nisabatan ishonchini xam mustahkamlaydi.

Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlardan kuchli va daxshatli kuchga aylangan bugungi kunda, o'zining g'arazli maqsadlarini ko'zlayotgan turli yovuz kuchlar va davlatlar o'zlarining faoliyatlarini yoshlar ongi va qalbini

egallashgaqaratmoqdalar. Ular o'zlarining "ohangrabo" maqsadlarini ko'klarga ko'tarib, g'oyalari, mafkuralari va ma'naviyatlarini dunyo yoshlari o'rtasida ommalashtirishda mablag'larini ayamayabdi. Bugun dunyoni egallahsha kim kimdan ustun bo'lishi masalasi g'oya va mafkuraviy kurashni asosiy yo'nalishini tashkil qilmoqda.

Bu kurashda o'zining xayotiy tajribasiga ega bo'limgan, mamlakatda erkin faoliyat uchun yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib moddiy farovonligi uchun mehnat qilishni xohlayotgan yoki unga saloxiyati yetmayotgan yoshlar ana shunday g'oya va mafkuralar ta'siriga tushib qolmoqdalar.

Shuning uchun ham yoshlarni ta'lim tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ularni ilm fan sohasiga jalb etish, bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev bugungi O'zbekiston yoshlariga katta e'tibor qaratmoqda, ularga ishonmoqda va umid bildirmoqda: «Yurtimiz yoshlari o'rtasida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida, umuman, barcha jabhalarda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan azamat yigitlarimiz ko'p. Ular o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyat, iste'dod va mahoratini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish borasida mamlakatimizda ko'p ishlar qilinyapti va kelgusida ham ularni albatta davom ettiramiz» [1].

Ayniqsa bugun axborotlarni, ya'ni turli g'oya va mafkuralarni yoshlar o'rtasida ommalashtirishning barcha texnik hamda texnologik vositalari tasavvur qilib bo'lmaydigan, yuksak darajada rivojlanganligi o'zlarining jirkanch maqsadlarini ko'zlayotgan yovuz niyatli kuchlarga qo'l kelmoqda. Ular bunday vositalardan biri bo'lgan barcha uchun axborot va turli yangiliklarni olish mumkin bo'lgan Internet hamda aloqa vositalari ustalik bilan foydalanmoqdalar.

Xususan, internetdan foydalanuvchilar dunyo bo'yicha asosan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil qilmokda. Yurtimizda esa Internetdan foydalanuvchilar 24 millionni tashkil qilmoqda, ularning aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi [2]. O'zbekistonda eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar katoriga Telegramm (80%) va WhatsApp (22%) kiradi.

Agar insonning bu yoshdagagi jo'shqinligi, har qanday yangilikga intiluvchiganligi, Internet va aloqa vositalari tarqatilayotgan turli axloqsizlik hamda ma'naviy kashshoqlikka olib keladigan "xabarlar", fil'm, kliplar va boshqalarga moyilligini hisobga oladigan bo'lsak, ularni bu salbiy xolatlardan himoyalash naqadar jiddiy masalaga aylanganligini anglab yetamiz.

Bugungi kunda, "internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalar soni bir necha yuz millionni tashkil etgan. Birgina AQSH davlati bir yilda 700000 qo'shiq, 6000 klipni suratga olib tarqatmoqda. Suratga olingan qushik va kliplarda asosan "ommaviy madaniyat" va hayosiz ko'rinishdagi illatlar targ'ib-tashviq qilinmokda.

Keltirilgan birgina ana shu ma'lumotdan ko'riniib turibdiki, bunday ma'lumotlarning sanog'iga yetib bo'lmaydi va ularning barchasi yoshlarga qaratilgan. Ular ana shunday targ'ibot va tashviqotlar bilan "bir o'q bilan ikkita" maqsadga, ya'ni boylik ortirish va yoshlarni osongina o'z izmiga solishga erishmoqdalar.

Bu ularning dunyoda uz xukmronligini ta'minlashda qo'llaydigan eng makkorona uslublaridan biri hisoblanadi. Albatta, ular bu yo'nalishda o'zlarining faoliyatlarini o'zgarayotgan zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishni davom ettirmokdalar. Bunday xolatda yoshlarga beriladigan e'tibor har qachongiga qaraganda ham kuchli bo'lishini taqozo qiladi.

Chunki, ular ta'siriga tushub qolgan yoshlar birinchidan, o'zligidan va milliy o'zligidan begonalashadi; ikkinchidan, hayotga va yaratuvchillikka munosabati susayadi; uchinchidan, o'ziga o'zi yashayotgan jamiyat va davlatga nisbatan ishonchsizligi yuzaga keladi.

Yoshlarni har daqiqada o'sha qo'shiqlar, kliplar va fil'mlar o'z doirasiga tortaveradi. Tabiiy ravishda bunday yoshlar mamlakatda mingta, xatto o'ntani tashkil kiladigan bo'lsa ham milliy ma'naviyatning qashshoqlanuviga, vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ularining yemirilishi uchun xavf paydo bo'ladi.

Bunday xavfning oldini olish barcha ta'lim va tarbiyadagi vazifalarimiz bosh yo'nalishi hisoblanadi. Ularni zamon talabi darajasiga ko'tarish, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Ularga beriladigan e'tibor turli g'arazli g'oya va mafkuralar o'tkazadigan ta'sirlardan kuchli bo'lishiga erishishni, bugungi zaruriyat talab qilmoqda.

Yoshlarning mustaqil ijtimoiy gurux sifatidagi mavqeini mustahkamlash, ularning ish bilan bandligini ta'minlash, milliy-ma'naviy durdonalarimiz asosida yovuz g'oyalarga nisbatan ustun, jozibador bo'lgan, ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keladigan badiiy va san'at asarlari, kliplar, qo'shiqlar va fil'mlar yaratish va keng ommalashtirish mafkuraviy immunitetini shakllanishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Albatta, keltirilayotgan vazifalarning ko'lami nihoyatda va o'ta murakkab hisoblanadi. Ular qaysidir darajada bugungi kunda amalga oshirilmoqda. Ammo,

hali ularni kuchaytirishni g'oyaviy va mafkuraviy hurujlarning avj olayotgan holatning o'zi talab qilmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy-iktisodiy faolligini oshirish moddiy jihatni haqida fikr yuritganimizda ularning mustaqil ijtimoiy guruh sifatidagi imkoniyati va maqomini mustahkamlash, moddiy hamda ma'nnaviy boyliklarni yaratishga va ulardan uz hayotiy ehtiyojlarida samarali foydalanishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni bosqichma bosqich kuchaytirib borish, ular ongi va qalbiga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni yetkazish kabilalar ularda turli g'arazli g'oya va mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan ogohlilik ruhiyatining shakllanish imkoniyatini kengaytiradi.

Yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishning muhim yo'nalishi bu – ularni jamiyat hayotida ijtimoiylashuvi, ya'ni umumiylar yo'lida ijtimoiy sinflar, guruhlar va tabaqalar bilan hamkorligining mustahkam bo'lishi, yagona kuch sifatida harakat qilishi masalasi tashkil qiladi. Zero, jamiyatdagi sinflar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'ttasida yakdillik bo'lmasa, ularning har biri o'z manfaatlari yo'lida tarqoq holatda harakat qilishsa, umum maqsadlar va manfaatlari yo'lidagi harakatlar ham besamar bo'lib qolaveradi. Albatta, bu yerda gap ularning har birining o'ziga xos manfaatlarini inkor qilish haqida ketayotgani yo'q, balki ularni umummanfaatlar bilan uyg'un tarzda olib borish zarurligi haqida ketmoqda.

Yoshlar ijtimoiy-innovatsion faolligi oshib borishiga ijobiy ta'sir o'tkazadigan omil – davlat tomonidan innovatsion g'oyalar uchun ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalangan holda ilgari surilayotgan g'oyalarning amaliyotga tatbiq qilinishidir.

Bu borada mamlakatimizda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O'RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida», 2019 yil 29 oktyabrdagi O'RQ-576-son «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida», 2020 yil 24 iyuldaggi O'RQ-630-son «Innovatsion faoliyat to'g'risida» Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 5 iyundagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-son «Yoshlar-kelejagimiz» davlat dasturi to'g'risida», 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-son «2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarni qabul qilingan bo'lib, yuqorida keltirilgan vazifalarni o'ziga qamrab olganligini va ularni

amaliyotga tadbiq qilinish yoshlar ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni mustaxkamlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'ydagi vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi:

1. Yoshlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ularning innovatsion faolligini oshirish ehtiyojlarning ortib borishiga uyg'un holda rivojlantirish hamda zamonaviy ilm, fan, texnika va texnologiyalar yutuqlarini yoshlar o'rtasida ommalashtirishga hamda ularni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshib borishi bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish va yoshlarni bunga keng jalg etish kerak.

2. Jamiyatni modernizatsiyalashtirish jarayonida ta'lim va tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, ularni boshqarishda demokratik uslublarni joriy etish, yoshlarning o'qishi, ilm olishi, fan, texnika va texnologiyaga bo'ladigan qiziqish va harakatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda yoshlar ongi, dunyoqarashi va tafakkurini modernizatsiyalashtirish talablari asosida yangilash hamda faoliyatlarini yangilik, kashfiyot va ixtiolar yaratishga yo'naltirish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoladi.Ushbu masalalarni hal etishda davlat tashkilotlari bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlar va ijtimoiy faol aholimiz birgalikda harakat qilishsa ko'zlangan maqsadlarga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyotimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, 1-jild. – Toshkent, O'zbekiston NMIU, 2017, 535-b.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. – "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. – "Xalq ", 2017, 1 iyul`.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-ijodiy uyi. 2009. 578 – 579-b.
5. "Yoshlar – kelajak bunyodkori" shiori ostidagi uyushmagan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarda natijadorlikka erishishning ilmiy-amaliy masalalariga bag'ishlangan respublika konferentsiyasi. – Toshkent, Yangi asr avlod, 2017. 3-b.
6. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya. – M., Progress, 2008.

7. Yakovets YU.V. Epoxal`nie innovatsii XXI veka. – M., Ekonomika, 2004.
8. Komilov N. Komil inson –millat kelajagi. – Toshkent, O'zbekiston, 2001.
9. Otamuratov S. Specific Characteristics of Youth Social Group and its Place in Community Life. Periodica. Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. Volume 11, October, 2022. P.51-56.
10. Otamuratov S. Transformation Of The Youth Of New Uzbekistan In Social And Innovative Processes: A Sociological Analysis, in volume 16, of Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) January, 2022, p.19-25.
11. Otamuradov S. Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik. -Toshkent: O'zbekiston NMU, 2013.
12. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Navro‘z, 2015.
13. Umarova F., Norqulov S. Modernizatsiya va o'zbek etnotafakkuridagi yangilanishlar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021.
14. Абдрахимов А.Б., Аванесян С.В., Айналиева А.Р., Аксенова Т.В., Алавердян Е.С., Аламанова Е.А., ... и Шевченко Г.В. (2023). Фундаментальная и прикладная наука: состояние и тенденции развития.

"Innovations in Science and Technologies"